



UDK:94.5

Dilshodbek KALONOV,
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti tadqiqotchisi
E-mail: kalonov@gmail.com.

QarDU professori, tarix fanlari doktori B.Eshov taqrizi asosida

DEVELOPMENT OF THE OIL AND GAS INDUSTRY IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation

The creation of a modern material and technical base for the socio-economic development of Uzbekistan has led to fundamental transformations in industry and the national economy, in which the oil and gas sector plays a special role. It should be emphasized that the development and stable functioning of the oil and gas industry is of great importance in strengthening the country's economic independence and ensuring public welfare. Within the system of economic development, the fuel and energy sector holds a decisive position in maintaining the stable operation of industrial branches. In turn, within the fuel and energy sector, the oil and gas industry occupies a particularly important place.

Key words: Oil and gas industry, Ural economic basin, Kokdumalak, Alan, Pomiq.

РАЗВИТИЕ НЕФТЕГАЗОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

Создание современной материально-технической базы социально-экономического развития Узбекистана обусловило коренные преобразования в промышленности и народном хозяйстве, в которых особое место занимает нефтегазовая отрасль. Следует отметить, что развитие и стабильное функционирование нефтегазовой промышленности имеет важное значение для укрепления экономической независимости страны и обеспечения благосостояния населения. В системе экономического развития топливно-энергетический комплекс занимает решающую роль в обеспечении устойчивой работы отраслей промышленности. В свою очередь, в топливно-энергетическом комплексе нефтегазовая промышленность занимает особое место.

Ключевые слова: Нефтегазовая промышленность, Уральский экономический бассейн, Кокдумалак, Алан, Помик.

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARAQQIYOTI

Annotatsiya

O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining zamonaviy moddiy texnika bazasini yaratish sanoat va xalq xo‘jaligi sohasida tub o‘zgarishlarni ta‘minlashda ishlab chiqarishning neft va gaz sanoati tarmoqlari alohida o‘rin tutadi. Ta‘kidlash joizki, mamlakat iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash hamda xalq farovonligini ta‘minlashda neft-gaz sanoatining rivojlantirilishi, barqaror faoliyat ko‘rsatishi muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy taraqqiyot tizimida sanoat tarmoqlarining barqaror ishlashini ta‘minlash jarayonida yoqilg‘i-energetika tizimi hal qiluvchi o‘ringa ega. O‘z navbatida yoqilg‘i-energetika tizimida esa neft va gaz sanoati alohida o‘rin tutadi.

Kalit so‘zlar: Neft va gaz sanoati, Ural iqtisodiy havzasi, Ko‘kdumaloq, Alan, Pomiq.

Kirish. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, uni diversifikatsiya etish va milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, yoqilg‘i-energetika majmuasi, xususan neft va gaz sanoati mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashda strategik ahamiyat kasb etdi. Chunki mazkur tarmoq nafaqat ichki energiya ehtiyojlarini qondirish, balki eksport salohiyatini oshirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston hududi boy tabiiy resurslarga ega bo‘lib, mustaqillikdan so‘ng ushbu resurslardan samarali foydalanish, yangi konlarni o‘zlashtirish hamda mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, Ko‘kdumaloq, Alan va Pomiq kabi yirik neft-gaz konlarining o‘zlashtirilishi mamlakat yoqilg‘i-energetika bazasini mustahkamlashda muhim omil bo‘ldi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tarmoq rivojida yangi bosqichni boshlab berdi.

Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonda neft va gaz sanoatining rivojlanish bosqichlari, erishilgan

yuqular hamda mavjud muammolar tarixiy-iqtisodiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston-da neft va gaz sanoatining rivojlanish masalalari iqtisodchilar, tarixchilar va soha mutaxassisleri tomonidan keng o‘rganilgan. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda tarmoqning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, investitsion jarayonlar hamda davlat siyosatining o‘rni atroflicha tahlil etilgan.

Xususan, o‘zbekistonlik olimlar tomonidan yoqilg‘i-energetika majmuasining milliy iqtisodiyotdagi o‘rni, uning tarkibiy o‘zgarishlari va modernizatsiya jarayonlari yoritilgan. Tadqiqotlarda mustaqillikdan keyingi davrda neft-gaz sanoatiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, qo‘shma korxonalar tashkil etish va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Shu bilan birga, ayrim ilmiy ishlarda konlarni o‘zlashtirish jarayonlari, ishlab chiqarish hajmlarining o‘sishi hamda eksport salohiyatining kengayishi statistik ma‘lumotlar asosida tahlil qilingan.

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarda esa, asosan Markaziy Osiyo mintaqasining energetika salohiyati, geosiyosiy ahamiyati hamda global energiya bozoridagi o‘rni o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlar

O'zbekistonning neft va gaz resurslari mintaqaviy va xalqaro miqyosda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda tarmoq rivojining tarixiy jihatlarini yetarlicha chuqur o'rganilmaganligi, ayrim masalalarning kompleks yondashuv asosida tahlil etilmaganligi kuzatiladi. Mazkur holat ushbu mavzuni yanada chuqurroq ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tarixiylik, tizimlilik va qiyosiy tahlil metodlaridan keng foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini iqtisodiy tarix, sanoat iqtisodiyoti hamda energetika siyosati sohasidagi ilmiy yondashuvlar tashkil etadi.

Tarixiy metod yordamida mustaqillik yillarida O'zbekistonda neft va gaz sanoatining rivojlanish bosqichlari izchil o'rganildi. Tizimli yondashuv orqali yoqilg'i-energetika majmuasining tarkibiy qismlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil metodi esa mamlakat ichidagi hamda mintaqaviy darajadagi rivojlanish ko'rsatkichlarini taqqoslash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida statistik ma'lumotlar, rasmiy hisobotlar, hukumat qarorlari va ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Shuningdek, tahliliy va mantiqiy umumlashtirish metodlari asosida olingan natijalar tizimlashtirildi va xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar. Mustaqillik yillarida respublika hukumati o'z zamonaviy taraqqiyot yo'lini tanlab olib, ko'p ukladli iqtisodiyot tizimini barpo etdi. Jumladan, mamlakat xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarining barqaror ishlashini va rivojlanishini ta'minlovchi ustuvor sohalardan biri bo'lgan neft va gaz sanoatida ham tarkibiy o'zgarishlar samarali amalga oshirildi. Hozirgi davrda O'zbekistonning neft va gaz sanoati mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda asosiy tarmoqlardan biri bo'lib kelmoqda. Shuning bilan birga mintaqadagi neft va gaz resurslari butun Markaziy Osiyo mintaqasi hamda Rossiya Federatsiyasi neft va gaz sanoati rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Chunki u yirik sanoat tuzilmasini qamrab olgan bo'lib, hozirgi rivojlanish davrida salmoqli miqdordagi sarmoyalarni o'zlashtirmokda.

Mustaqillik yillarida neft va gaz sanoatini rivojlantirish maqsadida xorijiy sarmoyalar va texnologiyalarning kiritilishi sanoat rivojlanishi tarixida muhim burilish kasb etdi. Qisqa davr ichida O'zbekiston neft xom ashyosi, neft va gaz mahsulotlari import qiluvchi mamlakatdan ushbu mahsulotlarni eksport qiluvchi davlatga aylandi. Shu sababli respublikada neft va gaz sanoatining rivojlanishini tarixiy nuqtayi-nazardan hamda zamonaviy konseptual-metodologik jihatdan tahlil qilish, sohada amalga oshirilgan islohotlarni tadqiq etish mavzuning dolzarblilik jihatini belgilaydi.

XX asrning 90-yillarida mamlakat hududi boy neft zahiralari egaligiga qaramasdan neft xom ashyosini qazib chiqarishga e'tibor qaratilmaganligi bois neftni qayta ishlash quvvatlaridan foydalanish maqsadida O'zbekistonga katta miqdorda neft xom ashyosi keltirilgan, aksincha, arzon, toza gaz oqimi sobiq Itifoqning Ural iqtisodiy havzasi va boshqa hududlardagi sanoat korxonalari va aholi talablarini qondirish maqsadida tashib ketilgan. Jumladan, mustaqillik arafasida, ya'ni, 1990-yilga kelib O'zbekistonda mavjud konlardan 40,8 mlrd m³ tabiiy gaz va 2,8 mln. tonnadan ortiq neft va gaz kondensati qazib olingan. 1991-yilda bu ko'rsatkich gaz qazib chiqarish bo'yicha qariyb 42 mlrd. metr³ni, neft qazib olish bo'yicha 1,5 mln. tonnani tashkil etgan[1]. Tabiiyki, neft xom ashyosining bu miqdori respublika ichki ehtiyojini to'la qoplay olmas, shu sababli katta mablag' evaziga 1991-yilda asosan, Rossiyadan 5,7 mln. tonnadan ortiq neft xom ashyosi (jami iste'mol hajmining 70 foizi), 3,5 mln. tonnadan ortiq neft mahsulotlari (mamlakat jami iste'mol hajmining 34 foizi) keltirilgan[2], buning uchun esa salkam 1 mlrd. AQSH dollari

sarf etilgan[3]. Garchi, ulkan zahirali Ko'kdumaloq, Alan, Pomiq va boshqa bir qator konlar aniqlangan bo'lsada, ular ishga tushirilmagan, ularni o'zlashtirish masalasi esa markazda hal etilishi shart edi. Biroq, ushbu konlarni o'zlashtirish va ishga tushirish katta mablag' talab etganligi sababli markazda mablag' ajratish mavhuligicha qolar edi. Shu sababli O'zbekiston hukumati oldida davlat mustaqilligi qo'lga kiritilgach neft-gaz sanoati kompleksini modernizatsiya qilish mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashning eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Sohani modernizatsiya qilish avvalo, uning huquqiy asoslarini shakllantirish hamda mustahkamlashni taqozo etadi. O'zbekistonda davlat mustaqilligi qo'lga kiritilgach, huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim sharti sifatida ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratildi. Avvalo, hukumat tomonidan 1991-1993-yillarda respublikada neft mahsulotlarining yangi turlarini o'zlashtirish dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dasturning samarali amalga oshirilishi tufayli qisqa muddat ichida Farg'ona neftni qayta ishlash zavodida avtomashinalar uchun motor moyi ishlab chiqaradigan yangi qurilma ishga tushirildi.

Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichida, ya'ni 1992-yilda neft-gaz tarmog'i korxonalarini faoliyatining strategik ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi asosiy vazifalari belgilab berildi:

1. Neft, gaz va gaz kondensati qazib olishni ko'paytirish orqali iqtisodiyotning barcha sohalarini yoqilg'i-energetika resurslari bilan barqaror ta'minlash hamda mamlakat iqtisodiyoti xavfsizligini kafolatlovchi to'liq neft mustaqilligiga erishish.

2. Jahon standartlari talablariga javob bera oladigan neft va gaz mahsulotlari ishlab chiqarishni ta'minlash maqsadida neft va gazni qayta ishlash tarmog'ida texnologik jarayonlarni chuqurlashtirish.

3. Yangi konlarni ochildish yo'li bilan, avvalo, suyuq uglevodorod zahiralari ko'paytirish hamda ishonchli xom ashyo bazasini barpo etish[4].

Hukumat tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan yillarda nafaqat neft va gaz tarmog'i korxonalarining, balki, mamlakat energetika strategiyasining asosiy yo'nalishlari sifatida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish yuzasidan respublika hukumati tomonidan tarmoqda tarqoq holda faoliyat yuritayotgan soha korxonalarini faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida aniq belgilangan chora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirildi. Jumladan, 1992-yil dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni[5] ga muvofiq, neft va gaz sanoatida "O'zbekneft" va "O'zbekgazsanoat" davlat ishlab chiqarish birlashmalarini tugatish asosida ularning tarkibida neft va gazli maydonlarni geofizik aniqlash, qidiruv-izlanish ishlarini amalga oshirish, konlarni ishlab chiqarishga tayyorlash va ishga tushirish, neft, gaz va gaz kondensati qazib chiqarish, neft va gazni qayta ishlash, neft va gaz mahsulotlarini transportirovka qilish va yetkazib berish bilan shug'ullanib kelgan, tarqoq holda faoliyat yuritayotgan korxonalar negizida milliy korporatsiya tashkil etildi. Tarmoqda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanishni kengaytirish, kuchlarni bir joyga to'plash, xorijiy hamkorlar bilan ishlash hamda boshqaruv[6]ni osonlashtirish kabi bir qator zaruriyat va omillardan kelib chiqqan holda korporatsiya tomonidan "O'zbekiston Respublikasi neft va gaz sanoatini rivojlantirishning 1993-2000-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi" ishlab chiqildi[7]. Mamlakatda yer osti qazilma boyliklariga doir huquqiy-me'yoriy asosni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida 1994-yilda "O'zbekiston Respublikasining yer osti boyliklari to'g'risida"gi Qonuni[8] qabul qilindi. Ushbu qonun asosida mamlakat hududida mavjud yer osti qazilma boyliklari sifatida

neft va gaz konlari, shuningdek, istiqbolli neft va gaz maydonlari davlat nazorati ostiga olindi. Bozor munosabatlari talablari hamda sanoatdagi tub o'zgarishlar natijasida 2002-yilda ushbu qonunning yangi tahriri qabul qilindi[9], 2007-yilda esa tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi[10]. 1995-yilda esa korporatsiya tomonidan sohaga doir ikkinchi dastur – “1995-2000-yillar mobaynida neft va gaz geologik-qidiruv konsepsiyasi”[11] ishlab chiqildi. Ushbu dastur neft va gazga istiqbolli hisoblangan maydonlarda qidiruv-izlanish jarayonlarini izchillik bilan amalga oshirilishiga zamin yaratdi. Ushbu dasturning samarali amalga oshirilishi natijasida 1997-yilga kelib mamlakatda neft qazib chiqarish miqdori 1990-yilga nisbatan 2,8 marta oshgan holda qariyb 7,9 mln. Tonnani, tabiiy gaz qazib olish esa 1,3 martaga oshib, 51,2 mlrd m3ni tashkil etdi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O'zbekistonda neft va gaz sanoati izchil rivojlanib, mamlakat

iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylandi. Ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida yangi konlar o'zlashtirildi, ishlab chiqarish hajmi oshirildi hamda yoqilg'i-energetika tizimining barqarorligi ta'minlandi. Neft-gaz sanoati mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, byudjet daromadlarini ko'paytirish va aholi turmush darajasini yaxshilashda muhim omil sifatida xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, tarmoqda mavjud muammolar, xususan, eskirgan texnologiyalarni yangilash zarurati, ekologik muammolar va energiya resurslaridan samarali foydalanish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda. Kelgusida neft va gaz sanoatini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Rahimov A.K. O'zbekiston neft-gaz konchilari qissasi. – T.: Fan va texnika, 2004. – B.122.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: O'zbekiston, 2000. – B. 69.
3. Xo'ja A. Neft mustaqilligi-iqtisodiy taraqqiyot omili // O'zbekiston ovozi. 1998-yil 26-may. – B.2.
4. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li / O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. 1-jild. – B. 32-33.
5. O'zbekiston neft va gaz sanoati davlat konsernini Neft va gaz sanoati (“O'zbekneftgaz”) milliy korporatsiyasiga aylantirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. – T.,1993. №2. – B. 32-33.
6. Qambarov M. Mustaqillik inshootlarini barpo etishda hissamiz bor / Omonov O. Neft-gaz: mustaqillik odimlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – B. 3.
7. “Yer osti boyliklari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining 23.09.1994 y. № 2018-XII Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. – Toshkent, 1994. № 10. – 252-modda.
8. “Yer osti boyliklari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining 13.12.2002 y. № 444-II Qonuni (yangi tahriri) // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – Toshkent, 2003. № 1. – 5-modda.
9. “Yer osti boyliklari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida 18.12.2007 y. № O'RQ-133 O'zbekiston Respublikasining Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi. – Toshkent, 2007. № 12. – 604-modda.
10. Xo'ja A. Neft mustaqilligi-iqtisodiy taraqqiyot omili // O'zbekiston ovozi. 1998-yil 26-may. – B.2-3.
11. O'sha joyda. – B. 2.